QORAQALPOQ FILMLARIDA KINO TILINING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Tajadinova Guljahan – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
tajadinovaguljahan@gmail.com
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

ХУДОЖЕСТВЕННО – ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КИНОЯЗЫКА В КАРАКАЛПАКСКОМ КИНО

Таджадинова Гульжахан – *доктор философии (PhD) по филологическим наукам*
Нукусский филиал Государственного института искусств и культуры Узбекистана

ARTISTIC AND AESTHETIC FEATURES OF FILM LANGUAGE IN KARAKALPAK FILMS

Guljahon Tajadinova – *Doctor of Philosophy (PhD) in Philology*
Nukus branch of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Tayanch so'zlar: kino tili, kinematografiya, qoraqalpoq kino san'ati, vizual elementlar, verbal vositalar, noverbal vositalar, montaj, kadr, rakurs, dialog, ssenariy, badiiy ifoda, emotsional ta'sir, film uslubi.

Rezyume. Ushbu maqolada qoraqalpoq kino san'atining til xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kino tilining mohiyati, uning tarkibiy elementlari — vizual, verbal va noverbal vositalar tizimi yoritiladi. Shuningdek, qoraqalpoq badiiy filmlarida kino tilining qo'llanishi, uning yutuq va kamchiliklari aniq misollar asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida kino tilining qisqalik, aniqlik va emotsional ta'sirchanlik kabi asosiy xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada kino tilini rivojlantirishda ssenariy mahorati, vizual ifoda vositalari hamda ustoz-shogird an'analarining ahamiyati asoslab beriladi.

Ключевые слова: язык кино, кинематография, каракалпакское киноискусство, визуальные элементы, вербальные средства, невербальные средства, монтаж, кадр, ракурс, диалог, сценарий, художественное выражение, эмоциональное воздействие, стиль фильма.

Резюме. В данной статье проводится научно-теоретический анализ языковых особенностей каракалпакского киноискусства. Рассматриваются сущность киноязыка и его структурные компоненты — визуальные, вербальные и невербальные средства. Также на конкретных примерах анализируется применение киноязыка в каракалпакских художественных фильмах, его достижения и недостатки. В результате исследования раскрываются основные характеристики киноязыка, такие как краткость, точность и эмоциональная выразительность. В статье

Key words: film language, cinematography, Karakalpak cinema art, visual elements, verbal means, nonverbal means, editing, shot, angle, dialogue, screenplay, artistic expression, emotional impact, film style

Summary. This article provides a scientific and theoretical analysis of the linguistic features of Karakalpak cinema art. The essence of film language and its structural components — visual, verbal, and nonverbal means — are examined. In addition, the application of film language in Karakalpak feature films, along with its achievements and shortcomings, is analyzed based on specific examples. As a result of the research, the main characteristics of film language, such as conciseness, clarity, and emotional expressiveness, are revealed. The article also substantiates the importance of screenplay mastery, visual expressive means, and the master-apprentice tradition in the development of film language.

KIRISH. Kino badiiy san'atning murakkab va sintezlashgan turi bo'lib, unda adabiyot, teatr, musiqa hamda tasviriy san'at unsurlari o'zaro uyg'unlashadi. Ushbu uyg'unlik natijasida kino o'ziga xos ifoda vositalari tizimi — kino tilini shakllantiradi. Kino tili oddiy so'zlar yig'indisi emas, balki kadr, montaj, rakurs, yoritish, ovoz, shuningdek ssenariy matni va dialoglardan tashkil topgan murakkab badiiy tizimdir. Mazkur elementlar birgalikda badiiy haqiqatni yaratadi va tomoshabinga mazmun yetkazadi.

Kino tili — kinematografiyada ekran orqali axborot, his-tuyg'u va g'oyani ifodalashga xizmat qiluvchi badiiy hamda texnik vositalar majmuasidir. U rakurs, montaj, yoritish, ovoz, aktyor o'yini, mizansahna kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu vositalar uyg'unligi filmning badiiy realligini shakllantiradi.

Kino tilining asosiy xususiyatlari sifatida qisqalik, aniqlik va ekspressivlikni ko'rsatish mumkin. Unda og'zaki (dialog, subtitr) va noverbal (mimika, imo-ishora, intonatsiya) vositalar birgalikda qo'llaniladi.

USULLAR. Mazkur maqolada kino tilining asosiy komponentlari kompleks tarzda, ya'ni semantik, struktur va funksional jihatdan tahlil qilinadi. Kino tili murakkab semiotik tizim sifatida turli ifoda vositalarining o'zaro integratsiyasi orqali shakllanadi. Uning tarkibiy

qismlari va xorijiy kino nazariyasi bilan taqqoslanishi quyidagicha:

- **Vizual elementlar** — kino tilining yetakchi komponenti sifatida kadr kompozitsiyasi, yoritish, rang yechimi, dekoratsiya, kostyum, kamera harakati, montaj va vizual effektlarni o‘z ichiga oladi. Fransuz kino nazariyotchisi André Bazinning fikricha, vizual tasvirning realizmi tomoshabinni film olamiga chuqurroq singdiradi. Shu bilan birga, qoraqalpoq kino badiiy amaliyotida ham vizual elementlar filmning estetik konsepsiyasini belgilash va atmosfera yaratishda hal qiluvchi vosita sifatida ishlatiladi.
- **Kadr** — kino tasvirining eng kichik birligi bo‘lib, u makon va vaqt doirasidagi vizual axborotni taqdim etadi. Xorijiy nazariyada, masalan, montaj maktabi (S. Eizenşteyn) kadrlar ketma-ketligi orqali dramatik va semantik ta’sirni oshirishga urg‘u beradi. Qoraqalpoq kinolarida ham kadrning kompozitsion va ritmik ahamiyati muhimdir, lekin ba’zan vizual dramatizm bilan verbal dialog uyg‘unlashmasligi kuzatiladi.
- **Montaj** — kadrlarni mantiqiy, ritmik va semantik jihatdan bog‘lab, voqealar izchilligini ta’minlaydi. Eizenşteyn nazariyasiga ko‘ra, montaj “ideya orqali zarba berish” vositasi bo‘lib, tomoshabinning hissiyot va tafakkurini boshqaradi. Qoraqalpoq kinolarida montaj ko‘proq vizual izchillik va voqea oqimini saqlashga xizmat qiladi, ba’zan esa dramatik ritm xorijiy kino tajribasiga nisbatan soddalashtirilgan shaklda qo‘llanadi.
- **Rakurs va kompozitsiya** — tasvirning ifodaviyligini oshiradi, tomoshabinning diqqatini muhim detalga qaratadi. Hollywood kino maktabi nazariyotchilari (m.a. D. Bordwell) rakurs va kamera burchaklari orqali psixologik ta’sirni kuchaytirishni ta’kidlashadi. Qoraqalpoq kinolarida rakurslar ko‘pincha badiiy dramatik effektga xizmat qiladi, lekin psixologik subtillar xorijiy standartlarga nisbatan kamroq qo‘llanadi.
- **Ovoz elementlari** — dialog, musiqa va ovoz effektlari filmning emotsional fonini shakllantiradi. Anglo-amerika kino nazariyotchilari (Bordwell va Thompson) ovozning dramaturgik va atmosferik funksiyasini vizual obraz bilan uyg‘un holda baholaydilar. Qoraqalpoq kinolarida ovoz elementi badiiy effektni yaratishda muhim bo‘lsa-da, ba’zan vizual qator bilan uyg‘unlashmasligi kuzatiladi.
- **Verbal va noverbal vositalar** — mazmunni yetkazishda o‘zaro uyg‘unlikda ishlaydi. Verbal vositalar axborot yetkazsa, noverbal vositalar emotsional va psixologik holatlarni ochib beradi. Fransuz kino nazariyotchisi Christian Metz kino tilining semiotik tuzilishini tahlil qilganida, noverbal elementlarning mazmuniy qatlamni boyitishda hal qiluvchi ahamiyatini ta’kidlaydi. Qoraqalpoq kinolarida ham noverbal elementlar tomoshabinning hissiyotini uyg‘otishda asosiy vosita sifatida ishlatiladi, ayniqsa, verbal dialoglarning kamligi yoki takrorlanish holatlarida.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Qoraqalpoq badiiy filmlarida kino tilining turli ko‘rinishlari kuzatiladi. Masalan, “O‘g‘ri” filmida voqealar qisqa va ta’sirchan dialoglar orqali ochib beriladi. Ushbu usul kino tilining muhim belgilaridan biri bo‘lgan lakoniklikni namoyon etadi. Biroq ayrim filmlarda verbal vositalardan ortiqcha foydalanish holatlari ham uchraydi. Xususan, “Azart oqibati” filmida bosh qahramon nutqidagi takrorlar vizual tasvir bilan uyg‘unlashmaydi. Natijada sahnaning badiiy ta’sir kuchi pasayadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, kino san’atida ortiqcha so‘zdan ko‘ra mimika va harakat orqali ifodalash samaraliroq hisoblanadi. Shuningdek, ayrim dialoglarda grammatik va uslubiy noaniqliklar kuzatiladi. Bu esa kino tilining yaxlitligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kino tilida ssenariy va subtitrlarning o‘rni haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ssenariy filmning asosiy poydevori bo‘lib, unda voqealar rivoji, dialoglar va sahnalar tizimi aks etadi. Ssenaristning mahorati kino tilining sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Subtitrlar esa qo‘shimcha axborot berish yoki tarjima vositasi sifatida xizmat qiladi. Qoraqalpoq kino san’atida subtitrlardan foydalanish darajasi nisbatan past ekani kuzatiladi.

Kino tilining badiiy xususiyatlari uning kommunikativ va estetik imkoniyatlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar orqali film tomoshabinga nafaqat axborot yetkazadi, balki kuchli emotsional va psixologik ta’sir ham ko‘rsatadi.

Kino tilining asosiy badiiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. **Qisqalik va aniqlik** — kino tilining eng muhim belgilaridan biri bo‘lib, unda g‘oya va mazmun ortiqcha tafsilotlarsiz, aniq va lo‘nda obrazlar orqali ifodalanadi. Kino san’atida “ko‘rsatish” tamoyili “aytish”dan ustun turadi. Shu bois, vizual tasvirlar orqali berilgan axborot ko‘pincha verbal izohga ehtiyoj qoldirmaydi.

Masalan, “Moynaqqa oq qush, g‘oz keldi” filmida Aral dengizining qurib borishi keng sahro, tashlandiq kemalar va suvsiz hududlar tasviri orqali ifodalanadi. Ushbu vizual obrazlar ortiqcha izohsiz ham ekologik fojeani aniq va ta’sirchan tarzda yetkazadi.

Shuningdek, jahon kinematografiyasida ham qisqalik va aniqlik tamoyili keng qo‘llaniladi. Masalan, The Revenant filmida bosh qahramonning og‘ir sharoitda tirik qolish kurashi ko‘p hollarda dialogsiz, faqat vizual tasvir va tabiiy tovushlar orqali ifodalanadi. Bu esa kino tilining lakonik va obrazli ifoda imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi.

2. **Emotsional badiiylik** — kino tilining muhim xususiyati bo‘lib, u tomoshabinning hissiyotlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan. Ushbu xususiyat musiqa, intonatsiya, ranglar, yoritish va kamera harakati orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan “Moynaqqa oq qush, g‘oz keldi” filmida Aral dengizining yo‘qolishi nafaqat faktik ma’lumotlar orqali, balki badiiy obrazlar, ramziy ifodalar va muallif murojaati orqali ochib beriladi. Film oxiridagi tabiatning “insonlarga murojaati” emotsional cho‘qqi vazifasini bajarib, tomoshabinda chuqur ta’sir uyg‘otadi.

Qo‘shimcha misol sifatida «Schindler's List» (1993, AQSHda suratga olingan Gollivud filmi) filmida rang va musiqa orqali yaratilgan emotsional ta’sirni keltirish mumkin. Filmning qora-oq tasvirda berilishi hamda ayrim epizodlarda rangli detal (qizil kiyimli qiz obrazi)ning qo‘llanilishi tomoshabinning psixologik qabuliga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Xuddi shuningdek, «Interstellar» (2014-yil, AQSHda suratga olingan Gollivud filmi) filmida musiqa (organ sadolari) va kosmik tasvirlar uyg‘unligi orqali insoniy tuyg‘ular — sog‘inch, qo‘rquv va umid hissi chuqur ifodalanadi. Filmning asosiy mavzulari vaqt, sevgi, qurbonlik va nisbiylik nazariyasi kabi ilmiy g‘oyalardir. Film g‘oyasi kelajakda yerda yashash qiyinlashadi, shuning uchun odamlar yangi sayyora izlashga majbur bo‘ladilar. Bosh qahramon koinotga sayohat qilib, insoniyat kelajagini saqlab qolishga harakat qiladi. Shunday qilib, kino tilining qisqalik va aniqlik hamda emotsional badiiylik kabi xususiyatlari uning badiiy-estetik ta’sirchanligini belgilaydi. Ushbu xususiyatlar nafaqat milliy kinematografiyada, balki jahon kino amaliyotida ham yetakchi o‘rin tutadi. Kino tilining mazkur jihatlarini chuqur o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash milliy kino san’atining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpoq kino san’atida kino tili shakllanish jarayoni davom etmoqda. Unda ko‘proq emotsional ifoda, pafos va dramatik ta’sir ustuvorlik qiladi. Shu bilan birga, ayrim holatlarda mantiqiy izchillik va stilistik aniqlik yetishmasligi kuzatiladi. Kino tilini rivojlantirishda ustoz-shogird an’analarini yo‘lga qo‘yish, professional ssenarist va rejissyorlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada qoraqalpoq kino san’atining til xususiyatlari har tomonlama tahlil qilindi. Kino tilining mohiyati, uning asosiy elementlari hamda filmlardagi amaliy ko‘rinishlari o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kino tili badiiy asarning mazmunini yetkazishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, uning nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirilishi qoraqalpoq kinematografiyasining kelgusi taraqqiyoti uchun muhimdir.

Natijada, qoraqalpoq kino san’atida kino tilini rivojlantirish uchun:

- vizual va verbal uyg‘unlikni kuchaytirish
- montaj va dramatik ritmni takomillashtirish
- noverbal ifoda vositalaridan kengroq foydalanish zarurligi aniqlandi.

Foydalangan adabiyotlar

1. X.Abulqosimova “Kino san’ati asoslari” Toshkent-2007.

2. M.Aliev “Kino asoslari” Toshkent “Oqituvchi”, 1993

3. Борисов Сергей технология создания документального фильма. М: Аспект пресс, 2018. 92 б.

4. Tajadinova, G. (2025). Development of historical films in modern Karakalpak cinema. International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research, 1(6), 78–79.

5. Nizamatdinovna T. G. VIEWS ON THE EPOCHS IN KARAKALPAK DOCUMENTARIES //International innovation and researches. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 59-62.

6. Мадияров, Бахтияр. "ДАМИР АБДИМУРАТОВНИНГ РЕЖИССЁРЛИК МАҲОРАТИ." *Interpretation and researches* 1 (47) (2025).

7. Madiyorov, Baxtiyor Smetovich. "QORAQALPOQ FILMLARIDA XARAKTER YARATISH XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 6.4 (2025): 246-250.